

DUNYONING HOZIRGI MAFKURAVIY MANZARASI

JDPU Maktab menejmenti yo'nalishi 4-kurs talabalari

Shukurullayeva Aziza

Shakarboyev Javohir

Annotatsiya: Dunyoning mafkuraviy manzarasi tushunchasi. Hozirgi davr dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Kalit so'zlar: mafkura, dunyo, millatchilik, tinchlik, faravon hayot

Dunyoning mafkuraviy manzarasi – jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha. Bugungi dunyo muayyan yaxlitlikni tashkil etsada, undagi mintaqa va davlatlar, millat va xalqlar tarixiy shart-sharoit, jo'g'rofiy joylashuvi, geostrategik holatiga ko'ra turli mavqega ega. Hozirgi davr – dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchli bo'lib borayotgan davr. Shunday ekan, ularning o'ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan mafkuraviy ta'sir usullari bo'lishi shubhasiz. Jahon siyosiy xaritasida ko'plab davlatlar mavjud bo'lib, ularda turli siyosiy kuchlar, partiyalar, din va diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'zaro farqlanadigan, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan manfaatlariga ega. Aynan mana shu manfaatlar o'zga xalqlar, turli mintaqalar, davlatlarning aholisi yoki ijtimoiy guruhlar ongiga, turmush tarziga ta'sir o'tkazish, ularni bo'ysundirish uchun yo'naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi. Bundan ko'zlangan asosiy muddao esa muayyan joydagi kishilarga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va diniy qarashlarni singdirish orqali o'z manfaatlarini ta'minlashga intilishdir. Bunday ta'sir o'tkazishning tinch yo'li ko'zlangan maqsadga olib kelmaganda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashish, mavjud vaziyatni ataylab keskinlashtirish, kuch ishlatish yo'li bilan bo'lsa ham ijtimoiy beqarorlikni yuzaga keltirishga harakat qilinadi.

Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasiga nazar tashlansa, aksariyat ilg'or davlatlarda umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar amal qilmoqda. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan umuminsoniy g'oyalar ustuvordir. Shu bilan birga, inson ongida yangicha dunyoqarash va tafakkur tarzi shakllanayotgan hozirgi davrda muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi kuchayib bormoqda. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va terrorizm, irqchilik va ekstremizm mafkuralari shular

jumlasidandir. Xususan, turli shakllarda namoyon bo‘layotgan terrorchilik kuchli moddiy asosga ega bo‘lib, mafkuraviy xavfi ham ortib bormoqda. Bundan tashqari, e‘tiqod umumiylikiga asoslanish, etnik birlikka urg‘u berish va yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog‘liqlik asosida yakka mafkuralar hukmronligini ta‘minlash va shu yo‘l bilan jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Lekin bular bugungi dunyodagi mafkuraviy jarayonlarni to‘la-to‘kis aks ettira olmaydi chunki globallashuv sharoitida bu jarayonlar yangicha tus va shakllarda namoyon bo‘lib, g‘oyaviy-mafkuraviy ta‘sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib bormoqda.

Hozirgi davr - dunyoda g‘oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davrdir.

Insoniyat XXI asr oxiriga kelib bir qator chegaralar bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma‘naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir. Shu bilan birga, dunyoda globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va intensivlashuvi, universal texnologiyalar bilan bog‘liq umumbashariy jarayonlar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Butun Yer yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligiga shubha yo‘q, albatta. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o‘zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo‘lgani ma‘lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko‘proq davlat ichida, ikki davlat o‘rtasida yoki nari borganda mintaqada doirasida bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri, aytaylik, Aleksandr Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish yo‘lidagi yoki o‘rta asrlardan boshlab yevropalik istelochilarning boshqa qit‘alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko‘lami jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno hodisalar sifatida baholanmog‘i kerakka o‘xshaydi. XX asrda ro‘y bergan ikkita jahon urushida o‘nlab davlatlar, bir necha qit‘a mamlakatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o‘rinli ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Urush qurollari takomillashib boraveradi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo‘q qilib tashlashga yetadi.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta‘sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar ham yo‘q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, kommunistik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Shuningdek, bir qarashda tarix sahnasidan tushub ketganday tuyulgan g‘ayriinsoniy xarakterga ega bo‘lgan neofashizm va irqchilikdek mafkuralar ham yangidan bosh ko‘tara boshlaganini ta‘kidlash zarur. Xususan, bugungi kunda Sharqiy Germaniya (sobiq GDR) hududida yashayotgan har ikki yoshning biri, G‘arbiy nemis yoshlarining esa 35 foizi, natsizm o‘zining ijobiy tomonlariga ega edi, deb hisoblayotgani fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Ayni paytda jahonning turli nuqtalaridan rivojlangan mamlakatlarga ko`chib kelishning kuchayib borishi sharoitida bu davlatning tub aholisi, ayniqsa, yoshlarning orasida irqchilik g`oyalarining yoyilishi tezlashayotganini ham ta`kidlash zarur. Sharqiy germaniyaliklarning 46 foizi, g`arbiy germaniyaliklarning 40 foizining Germaniyada chet elliklar haddan tashqari ko`p deb hisoblanishi ham bunday g`oyalar tarqalishi uchun yetarli zamin mavjudligini anglatadi.

Bir so`z bilan aytganda, dunyoning turli burchaklarida inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Kishilik jamiyati tarixi insonda oliyjanob fazilatlarning shakllanishi va rivojlanshiga ham, ayni paytda g`ayriinsoniylikning xilma-xil ko`rinishlari ildiz otib o`zining mudhish qiyofasini namoyon qilishiga ham ko`p bor guvoh bo`lgan. Afsuski, insoniyatning butun tarixi davomida bunday illatlar unga hamrohlik qilib keldi, turli davrlarda yangi shakl-shamoyil, xususiyat kasb etdi. Bugungi kunda ularning eng yovuzlari Yer yuzidagi tinchlik va totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida erkin taraqqiy qilishiga katta xavf tug`dirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O`zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Ergashev.I.Glaballashuv:dunyoqarash,ishonch va etiqod munosabati.Fidokor.2004 y.11 noyabr.
3. <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/download/4950/3519/1255>